



CHIQINDILARNI BOSHQARISH VA SIRKULAR IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH AGENTLIGI DIREKTORINING BUYRUG‘I

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4-martdagi “2021–2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF–6181-son Farmoni, 2021-yil 16-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqqligini ta‘minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF–6247-son Farmoni hamda 2018-yil 4-iyuldagi “Davlat organlari huzurida jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ–3837-son qarorining ijrosini ta‘minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. Quyidagilar:

Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi to‘g‘risidagi Nizom **1-ilovaga** muvofiq;

Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi faoliyati samaradorligini reyting baholash metodikasi **2-ilovaga** muvofiq;

Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi faoliyatini reyting baholash bo‘yicha komissiya tarkibi **3-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

2. Jamoatchilik kengashi faoliyatini reyting baholash bo‘yicha komissiya (Sobirov)ga:

har yili iyun va dekabr oylarining 10-kuniga qadar Jamoatchilik kengashining faoliyatini reyting baholab borish;

komissiya tomonidan Jamoatchilik kengashi faoliyati samaradorligini baholash reytingi bo‘yicha yakuniy natijalarni asoslantiruvchi hujjatlar bilan birgalikda baholash ishlari o‘tkazilayotgan oyning 25-kuniga qadar Agentlikka hamda jamoatchilikka taqdim etib borish;

komissiya bayonlari bilan barcha mas‘ul xodimlarni (komissiya a‘zolari) tanishtirib borish vazifalari yuklansin.

3. Jamoatchilik kengashining tarkibini shakllantirish bo‘yicha ishchi organi ikki hafta muddatda Jamoatchilik kengashiga a‘zolikka nomzodlar ro‘yxatini belgilangan tartibda Agentlik direktoriga tasdiqlash uchun kiritilishini ta‘minlasin.

4. **Matbuot xizmati** (Kamilova) Kengashning ishchi organi hisoblansin hamda uninig zimmasiga Kengash faoliyatini tashkiliy-uslubiy va axborot jihatidan ta'minlab borilishi yuklatilsin.

5. **Yuridik ta'minlash va tartibga solish ta'sirini baholash bo'limi** (Muzaffarov) jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishda qonunchilik hujjatlariga amal qilinishi va tegishli hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda ko'maklashsin.

6. Agentlik **markaziy apparatining boshqarma va bo'lim boshliqlari, uning hududiy bo'linmalari** hamda **tizimidagi barcha tashkilotlar rahbarlari** Jamoatchilik kengashi bilan hamkorlik uchun o'z yo'nalishlari bo'yicha mas'ul ekanliklari belgilansin.

7. **Devonxona** (Gulamov) ushbu buyruqni barcha tarkibiy va hududiy boshqarmalar hamda tizim tashkilotlariga ijro uchun yetkazsin.

8. Jamoatchilik kengashi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha mas'ul etib Direktor o'rinbosari v.v.b. **Sh. Sobirov** zimmasiga yuklansin.

Direktor



Sh. Hasanov

2025-yil "16" - oktabr
117 -son